NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEKANIZMI.....	803
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
Babakulova Matluba Kurbannazarovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	



MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası dotsent v.b., PhD.

E-mail: maxmudovsobir49@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarning barqaror iqtisodiy o'sishida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda "barqaror rivojlanish" tushunchasiga bo'lgan turli xil ilmiy yondashuvlar qiyosiy o'rganilgan, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o'rtasidagi uzviy aloqadorlik isbotlangan hamda xalqaro tashkilotlarning (BMT, Jahon banki, OECD, XMT) ushbu sohadagi pozitsiyalari tahlil qilingan. O'zbekiston mintaqalari, xususan Xorazm viloyati misolida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish imkoniyatlari va muammolari baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy barqaror rivojlanish uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarni muvozanatli integratsiya qilish zarur bo'lib, bu jarayonda davlat-xususiy sektor hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, UNEP, O'zbekiston mintaqalari, institutsional islohotlar.

Аннотация. В данной статье системно проанализированы теоретические основы концепции зелёной экономики в обеспечении устойчивого экономического роста регионов. В исследовании проведён сравнительный анализ различных научных подходов к понятию «устойчивое развитие», доказана взаимосвязь между зелёной экономикой и устойчивым развитием, а также проанализированы позиции международных организаций (ООН, Всемирный банк, OECD, МОТ) в данной сфере. На примере регионов Узбекистана, в частности Хорезмской области, оценены возможности и проблемы внедрения принципов зелёной экономики. Результаты показывают, что для устойчивого регионального развития необходимо сбалансированное интегрирование экономических, экологических и социальных компонентов, при этом решающее значение имеет сотрудничество государства и частного сектора.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, региональный экономический рост, экологическая устойчивость, социальное благополучие, UNEP, регионы Узбекистана, институциональные реформы.

Abstract. This article systematically analyzes the theoretical foundations of the green economy concept in ensuring sustainable economic growth of regions. The study comparatively examines various scientific approaches to the concept of "sustainable development," substantiates the interrelationship between the green economy and sustainable development, and analyzes the positions of international organizations (UN, World Bank, OECD, ILO) in this field. Using the example of the regions of Uzbekistan, particularly the Khorezm region, the opportunities and challenges of implementing green economy principles are evaluated. The findings indicate that balanced integration of economic, environmental, and social components is essential for sustainable regional development, while public-private partnership plays a decisive role in this process.

Keywords: green economy, sustainable development, regional economic growth, environmental sustainability, social welfare, UNEP, regions of Uzbekistan, institutional reforms.

KIRISH

1992-yilda Rio-de-Janeyro (Braziliya) shahrida bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish masalalariga bag'ishlangan konferensiyasida ekologik muvozanatni buzmasdan jamiyatning uzluksiz taraqqiyotini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyili rasman e'lon qilingan edi [1]. O'sha paytdan boshlab "barqaror rivojlanish" tushunchasi iqtisodiyot, ekologiya, falsafa va boshqa ko'plab fanlarning markaziy kategoriyasiga aylandi. Ammo bugungi kunga qadar ushbu tushunchaning mohiyati va mazmuni bo'yicha ilmiy doiralarda yagona konsensus shakllanmagan [2].

Hozirgi davrda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik inqiroz xavfining ortishi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global miqyosda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda [3]. Yashil iqtisodiyot

barqaror rivojlanishga erishishning eng samarali amaliy vositasi sifatida tan olingan bo'lib, u iqtisodiy o'sish bilan ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirish imkonini beradi [4]. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) 2011-yilda yashil iqtisodiyot bo'yicha yirik hisobotini e'lon qilib, bu sohadagi xalqaro siyosatning yangi davrini boshlab bergan edi [5].

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimiz mintaqalari, ayniqsa Xorazm viloyati, Orol dengizi inqirozining oqibatlarini, suv resurslarining cheklanganligi va qishloq xo'jaligiga bog'liqlikning yuqori darajasi kabi murakkab ekologik-iqtisodiy muammolarga duch kelmoqda [6]. Shu sababli mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — mintaqalarning barqaror iqtisodiy o'sishida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining o'rni va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash, xalqaro tashkilotlarning turli yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston mintaqalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi uzoq ilmiy evolyutsiya natijasi hisoblanadi. G.X. Bruntland rahbarligidagi Jahon atrof-muhit va rivojlanish komissiyasi 1987-yilda barqaror rivojlanishning klassik ta'rifini bergan: hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish, biroq kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga tahdid solmaslik [1]. Perelet R.A. barqaror rivojlanishga o'tishning tizimli boshqaruv jihatlari tadqiq etib, bu jarayonning murakkab va ko'p bosqichli xususiyatga ega ekanligini ta'kidlagan [2].

R.K. Tyorner barqarorlik darajalarini ikki katta guruhga ajratgan: "zaif barqarorlik" va "kuchli barqarorlik" [2]. Zaif barqarorlik yondashuviga ko'ra, tabiiy va ishlab chiqarilgan kapital bir-birini to'ldirishi mumkin, ya'ni agar umumiy kapital hajmi kamaymasdan saqlanib qolsa, barqarorlik ta'minlangan deb hisoblanadi. Kuchli barqarorlik esa tabiiy kapitalning o'ziga xos va o'rnini bosa olmaydigan xususiyatga ega ekanligini tan olib, uning kamaymasligini qat'iy talab qiladi. Bu ikki yondashuv orasidagi farq amaliy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O.K. Dreyer va V.A. Los barqaror rivojlanish tushunchasini tor va keng ma'noda talqin qilishgan [3]. Tor ma'noda diqqat asosan ekologik komponentga qaratilgan bo'lib, bu biosferaga nisbatan faoliyatni optimallashtirishni anglatadi. Keng ma'noda esa barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy parametrlardagi tub o'zgarishlarga asoslangan yangi faoliyat turi sifatida taqdim etiladi. O'zbekistonning mintaqaviy sharoitlarida barqaror rivojlanishni faqat tor ekologik yondashuvda emas, balki kengroq tizimli yondashuvda talqin qilish muhimdir.

Nemis olimlari A. Endres va I. Kverner barqaror rivojlanish tushunchasida markaziy o'rinni dinamik komponentga, ya'ni davlatlarning ketma-ket rivojlanish jarayoniga berishni ta'kidlashgan [4]. Ularning fikricha, barqaror rivojlanish "o'tkinchi muvaffaqiyat" emas, balki mustahkam poydevorda qurilgan uzoq muddatli farovonlik jarayonidir. N.V. Paxomova va K.K. Rixter esa barqaror rivojlanishga o'tishning bir necha muhim shartlarini belgilashgan, jumladan: ishlab chiqarish texnologiyalarini sifatli o'zgartirish, iqtisodiyot tarmoq tuzilmasini qayta qurish va makroiqtisodiy siyosat qadriyatlarini yangilash [7].

Pezzey J.C. va Toman M.A. barqaror rivojlanish iqtisodiyotini avlodlararo tenglik va qayta tiklanmaydigan ekologik resurslarning roli nuqtayi nazaridan o'rganishgan [8]. Ularning tadqiqotlari barqaror rivojlanishning faqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish emas, balki ijtimoiy komponentni ham o'z ichiga olishini ko'rsatgan. Meadowcroft J. barqaror rivojlanishni boshqarish masalasini chuqur tahlil qilib, bu jarayonda davlat idoralari, xususiy biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatini isbotlagan [9].

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli beqiyosdir. UNEP yashil iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilaydigan, ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan va atrof-muhit uchun xavflarni kamaytiradigan iqtisodiyot deb ta'riflagan [5]. OECD "yashil o'sish" atamasidan foydalanib, tabiiy boyliklar ekologik xizmatlarni taqdim etishda davom etishini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlagan [10]. Jahon banki esa "inklyuziv yashil o'sish" tushunchasini joriy etib, ekologik barqaror iqtisodiy taraqqiyot modelini ilgari surgan [11]. XMT (ILO) yashil iqtisodiyotni mehnat bozori nuqtayi nazaridan baholab, barqaror iqtisodiy o'sish, to'liq bandlik va munosib mehnat sifatida izohlagan [12].

Daly H.E. iqtisodiy "o'sish" va "rivojlanish" o'rtasidagi fundamental farqni ochib bergan [13]. O'sish miqdoriy ko'payishni, rivojlanish esa sifatni yaxshilashni anglatadi. Bu farqni tushunish mintaqaviy yashil iqtisodiyot siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki haqiqiy barqaror rivojlanish faqat YaIM o'sishi bilan emas, balki aholi turmush sifatining yaxshilanishi bilan ham o'lchanishi lozim.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanilgan. Birinchidan, mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish usuli asosiy metod sifatida ishlatildi. Buning uchun barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot mavzusiga bag'ishlangan 60 dan ortiq xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar — maqolalar, monografiyalar, xalqaro hisobotlar — o'rganildi [1–5, 7–14]. Manbalarni tanlashda 2000-yildan keyingi nashrlar ustunlik qildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Xalqaro tashkilotlarning — UNEP, OECD, Jahon banki, XMT, UNCTAD va Xalqaro savdo palatasi — yashil iqtisodiyotga bo'lgan yondashuvlari bir-biri bilan solishtirma tahlil qilindi [5, 14, 15]. Har bir tashkilotning ta'rifidagi asosiy tushunchalar, ustuvorliklar va farqli jihatlar aniqlandi.

Uchinchidan, kontekstual tahlil usuli O'zbekiston mintaqalari misolida yashil iqtisodiyot tamoyillarining tatbiq etilish imkoniyatlarini baholash uchun ishlatildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda xalqaro indekslar (Ekologik samaradorlik indeksi, Barqaror rivojlanish indeksi) ishlatilgan [6, 16].

Tadqiqotda Tilford S. va Whyte P. tomonidan taklif qilingan gorizontaliq iqtisodiy integratsiya ko'rsatkichlari tizimi metodologik asos sifatida qabul qilingan [17]. Ushbu tizim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni yaxlit holda baholash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari statik va dinamik guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "barqaror rivojlanish" tushunchasi ko'p o'lchovli bo'lib, u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarni birlashtiradi [1, 2]. Turli olimlar va tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflarni tizimlashtirish natijasida quyidagi umumiy xususiyatlar aniqlandi: jamiyat rivojlanishining dinamik jarayonliligi; kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish zarurati; iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat; va ijtimoiy rivojlanishga e'tibor qaratish (1-jadval).

1-jadval.

"Barqaror rivojlanish" tushunchasiga turli yondashuvlar tahlili [1-4, 7, 8]*

Muallif / manba	Asosiy g'oya va mazmuni
G.X. Bruntland komissiyasi (1987)	Hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamaslik tamoyiliga asoslangan rivojlanish modeli.
R.K. Tyorner	Barqarorlikni "zaif" (kapitalning umumiy hajmi kamaymasligi) va "kuchli" (tabiiy kapital kamaymasligi) darajalarga ajratgan nazariy yondashuv.
O.K. Dreyer, V.A. Los	Tushunchaning tor (ekologik) va keng (tizimli — iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) talqinlarini taklif qilgan.
A. Endres, I. Kverner	Barqaror rivojlanishda dinamik komponentni, ya'ni uzoq muddatli farovonlik ketma-ketligini asosiy o'ringa qo'ygan.
N.V. Paxomova, K.K. Rixter	Texnologik yangilanish, tarmoq tuzilmasini o'zgartirish, makroiqtisodiy siyosatni qayta ko'rish kabi aniq shartlarni belgilagan.
J.C. Pezzey, M.A. Toman	Avlodlararo tenglik, qayta tiklanmaydigan resurslar roli va ijtimoiy komponentning asosiy ahamiyatini isbotlagan.
S.A. Dyatlov	Barqaror rivojlanishni ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik asosidagi mavjudligi deb ta'riflagan.
J. Meadowcroft	Barqaror rivojlanishni boshqarishda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikning hal qiluvchi rolini asoslagan.

*Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

1-rasm. Barqaror rivojlanishning uch asosiy komponenti (ierarxik tuzilma)*



*Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan [1, 3, 8].

Tadqiqot doirasida yettita yirik xalqaro tashkilotning yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishga bo'lgan yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tashkilotlar o'rtasida umumiy konsensus mavjud bo'lsa-da, har birining o'ziga xos ustuvorliklari va ta'kidlaydigan jihatlari bor (2-jadval) [5, 10–12, 14, 15].

2-jadval.

Xalqaro tashkilotlarning yashil iqtisodiyotga yondashuvlari [5, 10–15]

Tashkilot	Ishlatiladigan atama	Asosiy ta'kidlanadigan jihatlar	O'ziga xos xususiyati
UNEP	Yashil iqtisodiyot	Inson farovonligi, ijtimoiy adolat, ekologik xavflarni kamaytirish	Eng keng qamrovli ta'rif
OECD	Yashil o'sish	Tabiiy boyliklardan foydalanib iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish	Investitsiya va innovatsiyalarga urg'u
Jahon banki	Inklyuziv yashil o'sish	Ekologik barqaror iqtisodiy o'sish	Daromad o'sishiga asosiy e'tibor
XMT (ILO)	Yashil iqtisodiyot	Barqaror bandlik, munosib mehnat	Mehnat bozori nuqtai nazari
UNCTAD	Yashil iqtisodiyot	Inson farovonligi va teng- sizlikni kamaytirish	Kelajak avlodlar himoyasi
ICC	Ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyot	Iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat birligi	Biznes hamjamiyati pozitsiyasi

*Manba: muallif tomonidan xalqaro hujjatlar asosida tuzilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning "asosiy tarkibiy qismlaridan biri" bo'lishi sharti bilan, barqaror rivojlanish yanada kengroq doiraga ega [5, 11]. Ya'ni yashil iqtisodiyot bilan bog'liq har bir masala barqaror rivojlanish bilan ham bog'liq, ammo barqaror rivojlanish bilan bog'liq har bir masala yashil iqtisodiyotning bir qismi bo'lishi shart emas. Runsimanning ta'kidlashicha, yashil iqtisodiyot klassik iqtisodiyotni ekologik toza yo'nalishda modernizatsiya qilish, ya'ni miqdordan sifatga o'tishdir (3-jadval).




3-jadval.

Barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tizimi [7, 17]*

Ko'rsatkichlar guruhi	Statik ko'rsatkichlar	Dinamik ko'rsatkichlar
Hayot sifati	Umr davomiyligi (sog'liq holatiga tuzatma bilan)	Yoshga bog'liq o'lim va kasallik ko'rsatkichlari
	O'rta ta'limdan yuqori ta'lim olganlar ulushi	Ta'limni davom ettirish uchun qabul qilinganlar soni
	Haroratning normal darajadan og'ishi	Uglerod gazi chiqindilari hajmi
	Ichimlik suvining sifati va mavjudligi	Suv havzalarining ifloslanish darajasi
Iqtisodiy farovonlik	Aholi jon boshiga ishlab chiqarish kapitali	Ishlab chiqarish kapitaliga real investitsiyalar
	Aholi jon boshiga inson kapitali	Inson kapitaliga real investitsiyalar
	Energiya resurslari zaxiralari	Energiya resurslarining kamayish sur'ati
	O'rmon resurslari zaxiralari	O'rmon resurslarining kamayish dinamikasi

*Manba: Tilford S. va Whyte P. [17] asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

O'zbekiston mintaqalari kontekstida tahlil shuni ko'rsatdiki, Xorazm viloyati va Orolbo'yi mintaqasida barqaror rivojlanish konsepsiyasini tatbiq etish uchun uchta asosiy muammo mavjud: suv resurslarining cheklanganligi, qishloq xo'jaligiga ortiqcha bog'liqlik va ekologik degradatsiya jarayonlari [6, 16]. Shu bilan birga, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ekoturizmni joriy etish mintaqaning yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun real imkoniyatlar sifatida baholandi (2-rasm).



2-rasm. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o'rtasidagi ierarxik munosabat*

*Manba: UNEP [5], OECD [10] va Jahon banki [11] materiallari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asosanib quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, "barqaror rivojlanish" tushunchasi ko'p o'lchovli va dinamik xarakterga ega bo'lib, u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarni yaxlit tizim sifatida birlashtiradi [1–4]. Turli olimlarning yondashuvlarini tahlil qilish natijasida barqaror rivojlanish faqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish emas, balki kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda sifati iqtisodiy o'sishni ta'minlash jarayoni ekanligi isbotlandi [8, 13].

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishishning eng samarali amaliy vositasi hisoblanadi [5, 10, 11]. Xalqaro tashkilotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ular yashil iqtisodiyotning turli jihatlarini ta'kidlasalar-da, umumiy maqsad — iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirish — barcha yondashuvlarda umumiydir.

Uchinchidan, O'zbekiston mintaqalarida, xususan Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish murakkab, ammo zaruriy jarayondir [6, 16]. Mintaqaviy barqaror rivojlanish faqat iqtisodiy va ekologik yondashuv bilan cheklanib qolmasligi, balki tashkiliy-huquqiy islohotlar, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi samarali boshqaruv hamkorligi va davlat-xususiy sektor sheriklik modeli asosida amalga oshirilishi lozim [9, 17].

Amaliy takliflar

Mintaqaviy yashil iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Ushbu strategiya mahalliy ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda UNEP va OECD tavsiyalariga muvofiq tuzilishi lozim [5, 10].

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini joriy etish kerak. Bu Jahon banking inklyuziv yashil o'sish modeli tamoyillariga mos keladi [11].

Qishloq xo'jaligida organik ishlab chiqarish va suv resurslarini tejamkor boshqarish texnologiyalarini keng joriy etish lozim, ayniqsa suv tanqisligi yuqori bo'lgan mintaqalarda [6].

Ekoturizm va yashil tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmlarini shakllantirish zarur [9, 14].

Barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tizimini mintaqaviy darajada joriy etish va ularni muntazam monitoring qilish mexanizmini yaratish kerak [7, 17].

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun yashil iqtisodiyot tamoyillarining O'zbekiston mintaqalaridagi real tatbiq etilish samaradorligini empirik baholash, mintaqaviy ekologik-iqtisodiy indeksni ishlab chiqish hamda davlat-xususiy sektor hamkorligi modellarini ekonometrik tahlil qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bruntland, G.H. *Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development* / G.H. Bruntland. — Oxford: Oxford University Press, 1987. — 383 p.
2. Perelet, R.A. *Sistemnoye upravleniye perekhodom k ustoychivomu razvitiyu* [Systematic Management of Transition to Sustainable Development] / R.A. Perelet // *Trudy Instituta sistemnogo analiza RAN*. — 2009. — T. 42. — S. 78–103.
3. Dreyer, O.K. *Ekologiya i ustoychivoye razvitiye* [Ecology and Sustainable Development] / O.K. Dreyer, V.A. Los. — Moskva: Izd-vo URAO, 1997. — 224 s.
4. Endres, A. *Ekonomika prirodnikh resursov* [Economics of Natural Resources] / A. Endres, I. Kverner. — Sankt-Peterburg: Piter, 2004. — 256 s.
5. UNEP. *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication* / UNEP. — Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011. — 631 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida. — Toshkent, 2022. — PF-36-son.
7. Zakharov, V.M. *Ekologo-biologicheskiye osnovy ustoychivogo razvitiya* [Ecological-Biological Foundations of Sustainable Development] / V.M. Zakharov // *Izvestiya Samarskogo nauchnogo tsentra RAN*. — 2014. — T. 16, № 5. — S. 9–15.
8. Pezzey, J.C. Progress and Problems in the Economics of Sustainability / J.C. Pezzey, M.A. Toman // *International Yearbook of Environmental and Resource Economics*. — 2002/2003. — P. 165–232.
9. Meadowcroft, J. Who Is in Charge Here? Governance for Sustainable Development in a Complex World / J. Meadowcroft // *Governance for Sustainable Development* / eds. J.B. Newig, J.-P. Voss, J. Monstadt. — London; New York: Routledge, 2008. — P. 107–131.
10. OECD. *Towards Green Growth: A Summary for Policy Makers* / OECD. — Paris: OECD Publishing, 2011. — 27 p.
11. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development* / World Bank. — Washington, D.C.: World Bank, 2012. — 171 p.
12. ILO. *Decent Work and the Green Economy* / ILO. — Geneva: International Labour Organization, 2023. — 52 p.
13. Daly, H.E. Toward Some Operational Principles of Sustainable Development / H.E. Daly // *Ecological Economics*. — 1990. — Vol. 2, № 1. — P. 1–6.
14. Runciman, B. *Ekologicheskiye navyki dlya «zelyonoy» ekonomiki* [Ecological Skills for "Green" Economy] / B. Runciman // *Kompyuternyy Vestnik*. — 2012. — № 54. — S. 42–45.
15. UNCTAD. *Green Economy* [Electronic Resource] / UNCTAD. — URL: <https://unctad.org/topic/trade-and-environment/green-economy>
16. Yashalova, N.N. *Teoreticheskiye aspekty vzaimosvyazi ekologii i ekonomiki v kontekste ustoychivogo razvitiya* [Theoretical Aspects of Ecology-Economy Interrelation] / N.N. Yashalova // *Natsionalnyye interesy: priority i bezopasnost*. — 2012. — № 44. — S. 26–34.
17. Tilford, S. *The Lisbon Scorecard IX: How to Emerge from the Wreckage* / S. Tilford, P. Whyte. — London: Centre for European Reform, 2009. — 80 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100